



## O`QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI

*Abdullayeva Ilmira Boltayevna*

*Xiva pedagogika kollejining*

*“Pedagogika,psixologiya “ kafedراسi o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchilarning pedagogik muloqoti asosida muomala madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** pedagogik muloqot, muomala madaniyati,ta`lim-tarbiya, pedagogik talab,pedagogik faoliyat .

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы формирования культуры общения на основе педагогического диалога будущих учителей.

**Ключевые слова:** педагогическое общение, культура общения, воспитание, педагогические требования, педагогическая деятельность.

**Annotation:** This article discusses the issues of forming a culture of communication based on the pedagogical dialogue of future teachers.

**Keywords:** pedagogical communication, culture of communication, education, pedagogical requirements, pedagogical activity.

Hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo`lishiga erishishni nazarda tutadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yilni O`zbekistonda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e`lon qildi.“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”ning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat organlarining fuqarolar bilan o`zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko`rib chiqish zarur. “Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishimiz darkor”, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

“Jamiyatimizda sog`lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug`ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o`z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo`lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg`ularini kamol toptirish,shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini



tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo`naltirilgan keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda”<sup>1</sup>.

Muloqot - yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma‘nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so‘zlashuvida paydo bo‘ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tairiba, ta‘lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me‘yorlar g‘oya va mafkura omillari ta‘sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Individ bilan shaxs muloqoti o‘rtasida juda katta farqni ko‘rish mumkin. Masalan, go‘dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o‘rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avval miyasida o‘ylaydi, so‘zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o‘rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog‘chada bolaga kattalar muloqot orqali ta‘sir qiladilar. Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta‘sir etadigan so‘zlarni qo‘llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko‘rsatmalarigizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi lozim. Muloqot ta‘lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo‘pol munosabatda bo‘lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta‘siming ajralmas sifatidir. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta‘lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo‘lib, unda ma‘lumot almashinadi va o‘quvchilarga o‘quvtarbiyaviy ta‘sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

B.G. Ananov fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog‘liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.



Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. O'qituvchilarning faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga bog'liq. O'quv mashg'ulorlarimda doim quyidagi sehrli so'zlardan foydalanaman: Assalom-u alaykum, hush kelibsiz, rahmat, iltimos, marhamat, kechirasiz, tashakkur, barakalla, ko'p yashang, sog' bo'ling.

O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishonтира olish va jalb qilish - o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

So'z bilan og'zaki ta'sir qilishda o'qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon, va muloyim bo'lishi, intonatsiyalar o'z o'rnida ishlatilishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish qudrati Sharq xalqlarida azaldan ma'lum bo'lgan. Hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so'z bilan og'zaki ta'sir etish nihoyatda xilma xil bo'lib, bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg'uga berilish holati), ijtimoiy an'anaviy muloqot, inson holatini so'zsiz tushunish, dilkashlik o'qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir.

O'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchining o'quvchilarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi;
- ular bilan o'zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorlik;
- o'quvchiga bevosita ta'sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi;
- o'z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o'zini-o'zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik;
- o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida ijodkorlik.



Modomiki, shunday ekan, ta'kidlash lozimki, o'qituvchining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo'lib, pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan ko'plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir. Kishilarning kundalik hayot tarzidagi muloqotiga e'tibor beramiz. Tasavvur qiling, notanish kishidan biror narsani so'rashingiz kerak. Tabiiyki, asosiy metod - iltimos qilish. Biroq, bevosita so'raladigan narsa haqida gapirishdan oldin, sizga muvaffaqiyatni ta'minlaydigan dastlabki vaziyatni tashkil qilishga intilishingiz kerak. Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;
- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;
- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;
- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish;
- muloqot obyekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun, o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida,



o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ulami boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi. Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, urauman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasa-da, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ulami tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim.

Xulosa. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot - mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalari o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari bir qancha kasbiy odob turlari borki, ular hamjamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni ham aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Ba'zan kasbiy odobni kasbiy axloq deb atalishi ham shundan. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o'rganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o'rin egallashi mumkin. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim. Ta'lim jarayonida shaxs shaxsga aylanib, tilni tobora to'liq o'zlashtirib, boshqalar bilan munosabatlarning axloqiy me'yorlarini, shu



jumladan nutq munosabatlarini ham o'rganadi, boshqacha aytganda, til vositalari yordamida muloqot qilish madaniyatini o'zlashtiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Xoliqov.Nutq madaniyati. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011.117-bet
2. Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T .: Universitet, 2010 yil.
3. Arutyunova N.D. Nutq xatti-harakatlarining strategiyasi va taktikasi // Gap va matnni o'rganishning prognostik jihatlari. Kiev, 1983.
4. Asqarova M., Rasulov I., Xodjaev A., Daniyarov X.D. Hozirgi Uzbek adabiyoti tili, Iqism. Toshkent, 1979 yil.
5. Goldin V.E. Nutq va odob. M.: Ma'rifat, 1983 yil. 5. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017. – С. 281-286
6. M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi.”Turon-Iqbol” nashriyoti,2006.57-bet